5. Moydinova, E. (2024). Analysis of the Structure of Professional Competence of Future English Teachers. Linguospektr, 1(1), 36–41.
6. Devorova, S. (2024). Improving the Reading Competence of Future English Teachers through Authentic Materials. TNJ, 9(60).

## TOJIK RAQS SAN’ATINING TARIXIY ILDIZLARI

**Hojiyev Ramizxon**
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
“San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Tojik raqs san’atining kelib chiqish tarixi, uning xalq madaniy hayotidagi o‘rni va badiiy-estetik ahamiyati tahlil etiladi. Arxeologik manbalar asosida qadimiy davrlarda shakllangan raqs turlari hamda ularning mazmuniy xususiyatlari yoritilgan. Maqolada XX asrda Tojikistonda professional raqs ansambllarining vujudga kelishi, milliy sahna raqslari rivoji va ularning xalq merosini asrashdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, tojik raqslarining falsafiy, estetik va ruhiy jihatlari milliy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yondashilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tojik raqsi, milliy meros, badiiy ifoda, estetik qadriyat, raqs ansambli, tarixiy ildiz, sahna san’ati, an’ana, madaniy meros.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ТАДЖИКСКОГО ТАНЦЕВАЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация:** В статье анализируется история зарождения таджикского танцевального искусства, его место в культурной жизни народа и художественно-эстетическое значение. На основе археологических источников освещаются виды танцев, сложившиеся в древности, и особенности их содержания. В статье показано возникновение профессиональных танцевальных ансамблей в Таджикистане в XX веке, развитие национальных сценических танцев и их роль в сохранении народного наследия. Также в научном плане рассматривается неразрывная связь философско-эстетических и духовных аспектов таджикских танцев с национальными ценностями.

**Ключевые слова:** таджикский танец, национальное наследие, художественное выражение, эстетическая ценность, танцевальный ансамбль, исторические корни, сценическое искусство, традиция, культурное наследие.

## HISTORICAL ROOTS OF TAJIK DANCT ART

**Abstract:** This article analyzes the history of the origins of Tajik dance, its place in the cultural life of the people, and its artistic and aesthetic significance. Drawing on archaeological sources, it explores the types of dances that developed in ancient times and the specifics of their content. The article examines the emergence of professional dance ensembles in Tajikistan in the 20th century, the development of national stage dances, and their role in preserving folk heritage. It also examines the inextricable link between the philosophical, aesthetic, and spiritual aspects of Tajik dance and national values.

**Keywords:** Tajik dance, national heritage, artistic expression, aesthetic value, dance ensemble, historical roots, performing arts, tradition, cultural heritage.

Tojik raqslari qadimgi tarixga ega bo‘lib, asrlar davomida xalq hayoti, marosimlari va bayramlarining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ularning hududiy xilma-xilligi, obrazliligi va nafisligi milliy san’at xazinasi sifatida qadrlanadi. Hozirgi kunda ham bu san’at turi zamonaviy harakatlar bilan boyitilib, dunyo miqyosda tanilib bormoqda.

Tojik raqs san’ati o‘z ildizlarini qadimgi Sharq sivilizatsiyasi davridan oladi. Arxeologik topilmalar, qadimiy haykallar va devoriy tasvirlarda qo‘l harakatlari, raqsga o‘xshash holatlar tasvirlangan.

Ayniqsa, So‘g‘diyona va Baqtriya hududlarida topilgan manbalar raqs san’atining keng tarqalganini ko‘rsatadi. Qadimgi davr (miloddan avvalgi VII-asr) raqs ko‘proq diniy marosimlarda, tabiat kuchlariga sig‘inishda ishlatilgan. O‘rta asrlar (IX-XV-asrlar) Tojikiston hududi Buyuk Ipak yo‘li orqali madaniy almashuv markaziga aylangan. Bu davrda raqslar saroy marosimlari va xalq sayllarining ajralmas



qismi bo‘lgan. Temuriylar va Somoniylar davrida, raqs san’ati yangi uslublar bilan boyigan, kuy va musiqa bilan uyg‘unlikda rivojlangan.

Tojik raqs san’ati tojik xalqining ruhiy olamini, tabiatga bo‘lgan munosabatini va turmush tarzini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Tojik raqslari o‘zining nafisligi, badiiy obrazliligi, qo‘l va barmoqlarning o‘ziga hos nozik harakatlari bilan ajralib turadi. Ushbu raqslar nafaqat xalq orasida balki professional raqs ijrochilari orasida ham yuksak darajaga ko‘tarilgan.

Tojik raqslarining bir qancha turlari mavjud. Jumladan,



**Badaxshon raqsi** – falsafiy va osoyishta, ruhiy tozalikka yo‘naltirilgan raqs hisoblanadi.

**Sug‘d va Zarafshon vodiysi raqsi** – yengil, quvnoq, bayramona kayfiy beruvchi raqs hisoblanadi.

**Hisor-Dushanbe raqsi** – klassik va sahna uslubiga yaqin, nafis raqsdir. **Kulob raqslari** – erkin, jo‘shqin, erkakona kuch va g’ayrat bilan ijro etiladi.

XX-asr boshidan boshlab Tojikistonda professional raqs ansambllari shakllandi. 1930-1940-yillarda milliy raqslarni sahna ko‘rinishiga moslashtirish, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish ishlari boshlandi. Shu davrda “Lola”, “Zebo” kabi mashhur ansambllar tashkil etildi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng tojik milliy raqs san’atini rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlandi.

Bugungi kunda Tojikistondagi raqs jamoalari xalqaro festival va tanlovlarda faol qatnashib, milliy raqs san’atini dunyoga tanitib, targ’ib etib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Абдуллаев, Б. (2019). Tojik raqs san’ati tarixi va rivojlanish bosqichlari. Dushanbe: Irfon nashriyoti.
2. Karimova, S. (2020). Markaziy Osiyo xalqlari raqs madaniyatida milliylik va o‘ziga xoslik. Toshkent: San’at nashriyoti.
3. Rahimov, N. (2018). O‘zbek va tojik raqs an’analarining o‘zaro ta’siri. Samarqand davlat universiteti ilmiy to‘plami.
4. Tojiev, A. (2021). Sharq xalqlari raqsi: tarix va bugun. Dushanbe: Adabiyot va san’at nashriyoti.
5. Ruzieva, M. (2017). Raqs san’ati va xalq ijodi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Qodirova, Z. (2022). Milliy raqslar orqali xalq ruhiyatini ifodalash usullari. O‘zbekiston san’at akademiyasi axborotnomasi.
7. UNESCO. (2015). Traditional Dances of Central Asia: Cultural Heritage and Preservation Strategies. Paris: UNESCO Publishing.
8. Karimov, F. (2016). Tojikiston madaniyati tarixidan lavhalar. Dushanbe: Donish nashriyoti.

## EXPLORING ANTHROPONYMS AND THEIR FUNCTIONS IN LANGUAGE AND CULTURE

**Ismailov Usarjon Usubjonovich**
PhD, Namangan State Technical University
usarjoni@gmail.com

**Abstract:** The article explores onomastics, particularly anthroponyms—personal names that reflect cultural values and social structures. It analyzes naming traditions across different cultures and their role in identity formation. The importance of understanding naming systems as a key element of cultural heritage is emphasized.

**Keywords:** Onomastics, anthroponyms, toponyms, linguistics, ethnonyms, name, naming, language.